

**Sh A R T N O M A № 2108**  
**(ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH TO`G`RISIDA)**

Chiroqchi tumani

«28» Yanvar 2022 yil

Ushbu shartnomaga asosan bir tomondan Chiroqchi tuman Elektr ta'minoti korxonasi nizomiga asosan harakat qiluvchi korxona raxbari Sh.Samadov keyingi o'rirlarda «Ta'minotchi» deb yuritiladi, hamda ikkinchi tomondan Chiroqchi tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi nizomiga asosan harakat qiluvchi mudir Sh.Boyjigitov (keyingi o'rirlarda «Iste'molchi» deb yuritiladi) ushbu shartnoma quyidagilar haqida tuzib imzolandi.

### 1. SHARTNOMANING MOHIYATI

1.1 Ushbu shartnoma bo'yicha «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ning buyurtmanomasiga muvofiq ulangan tarmoq orqali elektr energiyasi yetkazib berishni, «Iste'molchi» esa mazkur sharnomaning 1-ilovasida belgilangan quvvatda elektr energiyasini qabul qilib olish va ilova qilinadigan jadval asosida byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobidan haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

1.2 Byudjet tashkilotining yil davomida smeta xarajatlariga kiritiladigan o'zgarishlar doirasida xizmat ko'rsatuvchi, xizmat oluvchilar tomonidan o'zaro kelishilgan holda shartnoma summasiga o'zgartirishlar kiritishga haqlidirlar.

1.3 Elektr energiyaning shartnoma tuzilgan kundagi amalda bo'lgan tarif bo'yicha quvvatning narxi 450 (to'rt yuz ellik) so'mni tashkil etadi.

| Yil   | yav<br>ar  | fevra<br>1 | mart       | apr<br>el | m<br>ay | iy<br>un | iy<br>ul | avg<br>ust | sentya<br>br | oktya<br>br | noya<br>br | deka<br>br | jami       |
|-------|------------|------------|------------|-----------|---------|----------|----------|------------|--------------|-------------|------------|------------|------------|
| kVt.s | 735        | 735        | 735        | 0         | 0       | 0        | 0        | 0          | 0            | 0           | 0          | 0          | 2205       |
| So'm  | 330<br>750 | 3307<br>50 | 3307<br>50 | 0         | 0       | 0        | 0        | 0          | 0            | 0           | 0          | 0          | 9922<br>50 |

1.4 Shartnomaning umumiyligi 992 250.00 (to'qqiz yuz to'qson ikki ming ikki yuz ellik) so'mni tashkil qiladi.

### 2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

«Iste'molchi»ning huquqlari:

a. «Ta'minotchi»dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bo'linish chegarisiga yetkazib berishni;

b. Elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarisida elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarini shartnoma va standartlarda belgilangan miqdorda cheklashni;

d. Elektr energiyasi iste'molining oylik shartnomaviy miqdorini choraklik miqdor doirasida joriy chorak mobaynida 2 marta (1 va 2 oylarda ular tugaguncha 10 kundan kechikmay) qayta taqsimlanishini «Ta'minotchi»dan talab qilishga haqlidir;

e. Elektr tarmoqlarining bo'linish chegarisida zarur sifatga muvofiq bo'limgan elektr energiyasi yetkazib berilganda «Iste'molchi» o'z xohishiga ko'ra;

a. muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bo'limgan holda yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni haqini to'lashni rad etishga;

b. «Ta'minotchi»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni, boy berilgan foydani qoplanishini talab qilishga haqlidir;

2.1 «Iste'molchi»ning majburiyatları:

a. Hisobga olish joyi elektr tarmoqlarning «Ta'minotchi» bilan balansi mansubligi bo'yicha bo'linish chegarisida o'tkazish (iste'molning hisobga olinishi bo'linish chegarisida amalga oshirilmagan vaziyatlarda).

b. Elektr tarmoqlari, asbob-uskunalarining tegishli texnik holatini va xafvsizligini ta'minlash;